

MAKTAB DARSLIKLARIDAGI AYRIM FRAZELOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Baxriddionova Barno

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17670792>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab darsliklaridagi ayrim frazeologizmlar ma'nolari tahlil etilib, ma'no turlariga ajratiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, barqaror birikma, darslik, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, nutq, leksema, darslik.

Xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi, urf-odatlar, dunyoqarashi va tafakkur tarzini o'zida aks ettiradigan barqaror so'z birikmalari frazeologik birliklardir. Frazeologik birliklar so'z birikmalaridan farq qilib, majoziy ma'noni ifodalovchi turg'un birikmalar hisoblanadi. Ular nutq jarayonida qo'llanilar ekan, ma'noning bo'yoqdorligini oshirishda hamda obrazli ifodalashga yordam beradi. Barqaror birikmalar o'z navbatida ikki ma'no turiga farqlanadi: 1) frazeologik butunlik; 2) frazeologik chatishma.

Frazeologik butunlik – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan ko'p izohlanadi. Masalan, *qulog'iga quymoq* birikmasi "gap uqtirmoq" ma'nosini ifodalab, ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlanadi.

Frazeologik chatishmada esa frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'no bilan izohlanmaydi. Misol uchun, *ko'zi to'rt bo'lmoq* frazemasini "biror narsa yoki odamni intizorlik bilan kutmoq" ma'nosini ifodalaydi, bu ma'noni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi.

Maktab darsliklaridagi ayrim barqaror birikmalar ma'nolari bilan tanishib chiqamiz.

M: Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Ushbu misrada keltirilgan "to'tiyo aylamoq" birikmasi ma'no turiga ko'ra frazeologik butunlikdir. To'tiyo – oldingi paytlarda ko'z og'rig'iga qarshi yoki ko'zni ravshan qilish uchun surtiladigan dori. She'rda esa juda aziz, muqaddas yoki noyob narsani ko'zga surish ma'nosini bermoqda

Qoni qaynar haydovchining

Tishlarini qayraydi.

Mashinani o'ljasi

Ustiga tik haydaydi.

Tish qayramoq frazeologizmi fursat kelganda qasdini, alamini olishga shaylanmoq; qoni qaynamoq esa g'azabi qo'zg'amoq, jahli chiqmoq deganidir.¹

M: O'rmonda uning iziga tushgan odamlar atrofdagi dov-daraxtlarni yondiradilar.

Sho'rimiz quriydigan bo'ldi. (Adab. 5-sinf.48) *Iziga tushmoq* ushbu o'rinda zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq; sho'ri qurimoq frazeologik chatishma sifatida mushkul, qiyin ahvolga tushib qolmoq ma'nolarida kelgan².

¹Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tili frazeologik lug'ati. –Toshkent; 2022. –B.501.

² Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tili frazeologik lug'ati. –Toshkent; 2022. –B.203.

M: O'pkam to'lib, tomog'imga achchiq bir narsa qadalib qoldi. (Adab.5-sinf.27)

O'pkasi to'lmoq yig'lash darajasiga kelib yig'isi tomog'iga kelmoqdir. Ushbu birikma frazeologik chatishmadir.

M: Akelaning kundan kun keksayib, zaiflashib borayotganidan xabardor Sherxon changalzorda har bir qulay fursatdan foydalanib Mauglining payini qirqa boshlaydi. (Adab.5-sinf.57) Payini qirqmoq mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq deganidir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktab darsliklarida frazeologik birliklarning qo'llanishi til o'qitish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Iboralar o'quvchilarda so'z boyligini, oshirish, ularning nutqini ifodali, ta'sirchan va obrazli qilishga xizmat qildi. Frazeologizmlar orqali o'quvchilar xalqning madaniy merosi, urf-odatlarini, milliy tafakkuri bilan tanishadi. Shu bilan birga, darsliklarda ularning berilishi nutq madaniyatini shakllantirib, so'zlarning ma'no nozikliklarini his etishni o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erbutayeva Sh. U. (2025, March). Funktsional ko'makchisi xususida ba'zi mulohazalar. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 15, pp. 40-46).
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Talqin, 2005.
3. Sayfullayeva, S. (2024). Frazeologik birliklarda ko'makchilarning qo'llanishiga doir o'ziga xosliklar. Analytical Journal of Education and Development, 4(10), - p.232-235.
4. Q. Yo'ldoshev, S. Qambarova, D. To'xliyeva, N. Yusufjonova, O.Olimjonov. 5-sinf adabiyot. – Toshkent: 2024.
5. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: 2022.
6. Шавкат Рахматуллаев. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 206.